

ARAB TILSHUNOSLIK MAKTABLARINI O'RGANILISHI.

Usmonova Robiya Ravshanbek qizi

Tosh.Yangi Asr Universiteti. Tarix (ShMM) 101.22.T. 3- kurs talabasi.

r3416547@gmail.com +998 94 683 88 37

Baxodir Yo'ldashev. K.

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14211267>

Annotatsiya. Ushbu maqolani yozishdan maqsad Arab tilshunoslik maktablarini o'rganishda o'quvchiga yanada yaxshiroq tushuntirib berishdir. Basra, Kufa va Bog'dod tilshunoslik maktablarining kelib chiqishi tarixi yoritilgan. Har bir maktabga asos solgan olim-u mutafakkirlar haqida ham bayon qilindi. Bu maktablar o'ziga xosdir. Misol uchun Basra maktabi so'zlarning tuzilishi va ularning fonetik o'zgarishga katta e'tibor qaratgan. Kufa maktabi esa nazariy tahlil qilishdan ko'ra amaliy yondashuvga katta e'tibor qaratgan. Bog'dod maktabi esa ikki maktabni birlashtirgan, shu to'g'risida batafsil yoritgan. Asosiy xulosa shundaki Basra Kufa va Bog'dod maktablarini kelib chiqish tarixini o'rganish ko'zda tutildi.

Kalit so'zlar: Arab tili, tilshunoslik, maktablar, ulamolar, aholi, Basra, Kufa, Bog'dod, tarix, madrasa.

STUDY OF ARABIC LINGUISTIC SCHOOLS.

Abstract. The purpose of this article is to provide readers with a deeper understanding of the Arabic linguistic schools. It explores the historical origins of the Basra, Kufa, and Baghdad linguistic schools. The article also highlights the scholars and intellectuals who founded each school. These schools have unique characteristics. For instance, the Basra school focused extensively on word structures and phonetic changes. The Kufa school, on the other hand, prioritized practical approaches over theoretical analysis. The Baghdad school combined the methodologies of both schools and elaborated on them in detail. The main conclusion is that the article aims to study the origins and historical development of the Basra, Kufa, and Baghdad linguistic schools.

Keywords: Arabic language, linguistics, schools, scholars, population, Basra, Kufa, Baghdad, history, madrasa.

ИЗУЧЕНИЕ АРАБСКИХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ШКОЛ.

Аннотация. Цель данной статьи — более подробно осветить для читателя арабские лингвистические школы. В ней рассматривается история происхождения Басрийской, Куфийской и Багдадской лингвистических школ. Также рассказывается об ученых и мыслителях, которые основали каждую из этих школ. Эти школы имеют свои особенности. Например, Басрийская школа уделяла большое внимание структуре слов и их фонетическим изменениям. Куфийская школа, напротив, сосредоточилась на практическом подходе, нежели на теоретическом анализе. Багдадская школа объединила методы обеих школ, что подробно изложено в статье. Основной вывод заключается в том, что целью является изучение истории возникновения Басрийской, Куфийской и Багдадской школ.

Ключевые слова: Арабский язык, лингвистика, школы, ученые, население, Басра, Куфа, Багдад, история, мадраса.

Basra maktabining vujudga kelish tarixi. "Basra maktabi IX asrda Iroqning Basra shahrida tashkil topgan. Bu maktabning tilshunoslik usuli juda qat'iy va mantiqiy yo'nalishda edi. Basra iqlimi geografik joylashuvi ancha yaxshiligi va savdo sotiq yo'llari bilan tutashganligi sabab deya e'tirof etsak mubolag'a bo'lmaydi. Basraning gullab yashnagan oltin davri Abbosiylar xalifaligi hukumronligi davriga to'g'ri keladi.

Bu davrda ilm-fan, savdo-sotiq ancha jadallashgan. Basra, Yevropa, Iroq, Ajam va Hindiston o'lkalarini bog'lab turadigan tijorat markaziga aylangan. Masjid va Kutubxonalar ilmu tolib adabiyotshunoslar bilan to'lib toshgan. Arab jazirasi markazdan Basraga kelayotgan arablar o'z yuklarini qo'yish uchun Basra tepaliklaridan yaxshiroq joy izlashgan. Basra aholisi esa bu joyni bilar edi va ular bilan savdo-sotiq qilish uchun kutib turar edi. Ko'p o'tmasdan bu maskan tijorat rivoj topgan katta Basraga aylandi. Shoirilar adiblar bu bozor sari intilgan. Negaki, bu joyda ko'plab ilmiy munozaralar bo'lib o'tardi. Shoiralar o'zlari yozgan she'rlarni o'qib bir-birlari bilan bahslashar edi."(M.Nosirava 2011. 38b) Til va adabiyot bilan shugullanuvchi olimlar bundan unumli foydalanishgan. Basra masjidlari ham ilmiy baxslardan bexabar qolmagan U yerda ko'plab ilmiy davralar uyishtirilar edi.

Shuningdek, qiroat, va'z, tilshunoslik, kalom ilmi, tafsir, xadis va boshqa bir qancha mavzularda majlislar o'tkizilar edi. Bu joyni bu maskanni eshitib turli joylardan olimlar, tilshunoslar, arab, fors va hindlardan iborat Basra aholisi bilan bir qatorda sahrodan kelgan badaviy arablar ham ishtirok etishga shoshilar edi. Mana shunday sharoitda Basra shahrida o'ziga xos tilshunoslik maktabi yuzaga keldi. Bu maktabning asoschilari va asosiy vakillari: Abul-Asvad-Dualiy, Halil ibn Ahmad al-Farohidi Kitab al-'Ayn nomli asarning muallifi hisoblanadi.

Bu asar arab tilining birinchi lug'atidir va unda tilning fonetik jihatlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Sibavayhi (asl ismlari Abu Bishr ibn Usmon ibn Qanbar) U arab tilining eng yirik grammatik asarlaridan biri bo'lgan "Kitab" (Kitob) asarini yozgan. Ushbu asarda arab tili grammatikasining murakkab qoidalari to'liq va aniq tushuntirilgan. Sibavayh arab tili morfologiyasining asoschisi sifatida ham tan olingan.

Basra maktabining o'ziga xosligi Basra maktabi vakillari grammatikaga qat'iy nazariya asosida yondashgan. Ular arab tilidagi barcha so'z va jumalarni qat'iy grammatik qoidalar asosida tahlil qilganlar. Bu esa arab tili ilmiy va amaliy qoidalarini shakllantirishda asos bo'ldi. Basra maktabining ilmiy yondashuvi Basra maktabi vakillari grammatikaga qat'iy nazariya asosida yondashgan.

Ular arab tilidagi barcha so'z va jumalarni qat'iy grammatik qoidalar asosida tahlil qilganlar. Bu esa arab tili ilmiy va amaliy qoidalarini shakllantirishda asos bo'ldi. Basra maktabi arab tilidagi so'zlarning tuzilishi va ularning fonetik o'zgarishlariga katta e'tibor qaratgan, bu esa arab tilini boshqa tillardan ajratib turuvchi xususiyatlaridan biridir.

Maktablarning vujudga kelish tarixi yuqorida aytib o'tganimizdir, masjid, kutubxona va madrasalardan ilk bor kelib chiqqan. Ilmga haris insonlar turli-xil yerlardan kelib ushbu maskanda topishganlar. Bu Basra maktabining kelib chiqish tarixi edi.

Kufa grammatika maktabining vujudga kelish tarixi. Basra maktabi kabi shakllangan Basra maktabi bilan deyarli bir paytda, undan sal keyinroq boshqa yo'nalishdagi arab tilshunosligi maktabiga Kufa shahrida asos solindi. "Bu shahar Basra kabi Iroq shaharlaridan biri bo'lgan.

U Sa'd ibn Abu Vaqqos tomonidan hijratning 16-17 yillari bunyod etilgan Kufa yangi fath etilgan muxofaza markazi bo'lib arablarning siyosiy va madaniy hayotida muhim ro'l o'ynar edi.

Shunday qilib, millodiy 638-yil asos solingan Kufa shahri Basraga yaqin bo'lganligi sababli unda ham fanning turli sohalarida jumladan, arab tilshunoslik borasida samarali izlanishlar olib borishga qulay sharoit yaratgan edi. "(M.Nosirova 2011.68b) Kufalik tilshunoslar arab tili dialektlarini, qadimiy arab she'riyatini va rivoyatlarni o'rganishga ko'proq ahamiyat qaratganlar.

Shu kundan boshlab Nahu sohasida ikki yo'nalish - Basra va Kufa nahv maktablari yuzaga keldi. Ushbu maktabning asosiy vakillaridan biri bu - Ali ibn Hamza Kisoiy- Kufa grammatika maktabining yo'l boshchilaridan biri bo'lgan. Kufa maktabining taniqli vakillaridan biri bo'lib, arab tili grammatikasi va fonetikasini o'rgangan.

U tilni nazariy emas, balki amaliy jihatdan o'rganishni afzal ko'rgan. Yana bir ulamolardan biri Al-Farro-Abu Zakariy Yahyo ibn Ziy Abdulloh ibn Marvon Daylamiy Bani Asad qabilasining quli bo'lgan. Asli fors bo'lgan Al-Farro 144/761 yil Kufada tavallud topgan. Uning "Al-Farro" deb atalashining sababi, suxbatdoshining gapini bo'laverar edi. Suyutining yozishicha, Farro Kisoiydan keyin kufaliklarning eng bilimdoni bo'lgan. Odamlar u haqida "Al-Farro nahvda amir al-mu'minindir", deyishar edi. U arab tili sintaksisi bo'yicha muhim asarlar yozgan va tilning xalq tilida qo'llanilishiga e'tibor qaratgan. Kufaliklarning ilmiy yondashuvi, Kufa maktabi vakillari tilni nazariy jihatdan tahlil qilishdan ko'ra, ko'proq amaliy yondashuvlarga tayanib o'rganishni afzal ko'rganlar. Ular arab tilining lug'aviy va dialektologik boyligini aks ettirishga harakat qilganlar, shu sababli Basra maktabiga nisbatan qoidalar erkinroq bo'lgan.

Bog'dod grammatika maktabining vujudga kelish tarixi. "Bu maktabning vujudga kelish tarixi xaqida so'zlasak 762-yil Bog'dod shahriga asos solinib uni Abbosiylar davlatining poytaxti deb e'lon qilinganligidan keyin madaniy hayot ham o'sha yerga to'plana boshladi.

Arablarning ilm va madaniyat markazi Iroqning yana bir taraqqiyot markazi bo'lmish Bog'dod shahriga ko'chdi. Endi har sohadagi olimlar jumladan nahvshunoslar ham Bog'dod tomon intila boshladilar, Kufa va Basra maktablarining vakillari o'z faoliyatlarini Bog'dodda davom ettirdilar, buning natijasida arab tilshunosligida yangi markaz tashkil topdi. Bog'dod maktabi vakillari ba'zida basraliklarning, bazida esa kufaliklarning fikrlarini qo'llab quvvatlashganligi sabab Basra va Kufa maktablari o'rtasidagi ixtiloflar susaya boshlagan va bu ikki maktab yo'qlikka yuz tutdi. "(M.Nosirova.2011.93b) Bog'dod maktabi to'g'risida Hanna Faxuriy shunday degan edi: "Basra va Kufa olimlari tomonidan yig'ilgan ma'lumotlar shunchalik mukammal va yetarli ediki, ulardan keyingi avlod ulomolari, birinchi galda Bog'dod tilshunoslariga faqat nahvga oid mavjud qarashlarni sharhlash va yoritish vazifasigina qolgan edi, xolos" deya aytib o'tgan. Bog'dod maktabining asosiy vakillaridan biri Abu al-Abbas Muhammad ibn Yazid al-Mubarrad (826–898) bo'lib, IX asrda yashagan taniqli arab tilshunosi, grammatik va adabiyotshunos olim. U Bag'dod maktabining yirik vakillaridan biri hisoblanadi va arab tilining nazariyasi, grammatikasi va stilistikasi bo'yicha o'ziga xos asarlar yaratgan.

"Yana bir ulamolardan biri bu Abu Muhammad Abdallah ibn Muslim ibn Qutayba al-Dinavari (828–889), Bag'dod maktabining yirik vakillaridan biri bo'lib, u arab adabiyoti, tilshunoslik, tarix, falsafa va hadis ilmlarida katta o'rin tutgan. U ko'plab asarlar yozgan va Bag'dod ilmiy maktabining uslublarini rivojlantirishda muhim hissa qo'shgan.

Ibn Qutaybaning ilmiy va adabiy asarlari o'zidan keyingi ko'plab olimlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qildi.

Uning kitoblari o'sha davrda katta e'tirofga sazovor bo'lgan va ko'plab talaba va olimlar tomonidan o'rganilgan."(R.Rosulov.1972)

Xulosa qilib shuni aytish joizki Arab tilshunoslik maktablarining har biri o'ziga xos yondashuv va ilmiy uslublarni ishlab chiqqan. Bu maktablar nafaqat arab tilini o'rganishga, balki uning boshqa tillarga ta'siriga ham katta hissa qo'shgan. Har bir maktabning yetuk olimlari arab tili grammatikasi va adabiyotining asoslarini yaratgan va rivojlantirgan.

REFERENCES

1. D.K.Mamatxunova.Sh.M.Mirziyotov. Arab Filologiyasiga Kirish. Toshkent 2010 yil.
2. M.Hasanov.M. Abzalov.Arab tili. Toshkent 2016.
3. Nosirova. M. Tilshunoslik Bilimlar Tarixi.2011 y.38 b 68 b 93 b
4. Ne'matullo I. Muhammad.Y.Abdulhakim.O. Arab tili Toshkent 2024
5. Rasulov.R. Umumiy Tilshunoslik.
6. S.Usmonov.Umumiy Tilshunoslik T.,1972
7. Arxiv.uz